

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS

TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika –matematik fakulteti

“Axborot texnologiyalari va tizimlari” kafedrasida

Muxamedova Shaxnoza

**Davolash maskani axborot tizimida tibbiy muolajalar hisobini yuritish tizim
osti loyihasini yaratish**

5480100- Kasb ta’limi “Informatika va axborot texnologiyalari” ta’lim yo’nalishi
bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Ish ko‘rildi va himoya qilishga Ilmiy rahbar _____ Z.Sh. Jo‘rayev
ruxsat berildi” “_____” _____ 2019 y.

Kafedra mudiri Taqrizchi _____ U.Ibragimov
_____ dots O.I.Jalolov “_____” _____ 2019 y.

«_____» _____ 2019y.

“Himoya qilishga ruxsat berildi”

Fakultet dekani _____ t.f.n.prof. Sh.M.Mirzayev

“_____” _____ 2019 y.

Buxoro-2019

Mundarija

KIRISH.....	3
I.BOB. DASTURIY TAMINOTNI LOYIHALASH	9
1.1. Dasturiy taminot loyihash bosqichlari va natijalari	9
1.2. Dasturiy taminotni loyihalash metodlari.....	16
1.3. Dasturiy taminotni yaratishda texnik topshiriqga qo'yiladigan talablar.....	24
I bob xulosasi.....	36
II.BOB. DAVOLASH MASKANI AXBOROT TIZIMIDA TIBBIY MUOLAJALAR HISOBINI YURITISH TIZIMI DASTURIY TAMINOT YARATISH TEXNIK TOPSHIRIG'I.....	40
2.1. Loyiha malumotlari.....	40
2.2. Dasturiy taminotga qoyilgan talablar.....	46
2.3. Batafsil ish rejasi (bosqichlar ro'yxati, ular uchun belgilangan muddatlar)	50
2.4. Loyixaning ER modeli.....	70
II bob xulosasi.....	74
XOTIMA	78
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	79

KIRISH

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz

SH.M.Mirziyoyev

So'nggi yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanayotgan davlatlar qatoridan o'rin egallab bormoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat dasturlari buning yaqqol natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Prezidentimizning "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmoniga muvofiq mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Xususan unda ta'lim va fan sohasini rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilganligi Respublikamizning ta'lim tizimini isloh qilish va bu sohani yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlariga berilayotgan bunday imkoniyatlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning gaplarida ham o'z ifodasini topadi: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz."

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya sohasini rivojlantirishning asosi hisoblangan dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim sharti sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Hayotimizning har jabhasida faol qo'llanilayotgan axborot almashinuv

texnologiyalaridan samarali foydalanish ulardagi dasturiy ta'minotlarning o'ziga xosligi, ommabopligi va innovatsion yangiligiga bog'liq. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi, "EHM dasturlari va ma'lumotlar bazasini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar soha rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugun yurtimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kirib bormagan sohaning o'zi yo'q. Bu esa, o'z navbatida, software sanoatining izchil rivojlanishiga keng yo'l ochmoqda. Xususan, hozirgi kunda mamlakatimizda dasturiy mahsulotlarni yaratish, ishlab chiqarish va joriy qilish bilan shug'ullanuvchi 260 dan ziyod tadbirkorlik sub'ektlari faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatimizda dasturiy ta'minot sanoatini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar, sohaga daxldor mustahkam qonunchilik bazasini yaratishga e'tibor qaratilmoqda. Hozirgacha 10 dan ziyod qonun, Prezident va Vazirlar Mahkamasining qator farmon hamda qarorlari qabul qilindi. Dasturchilarni qo'llab-quvvatlash borasida muntazam chora-tadbirlar amalga oshirilayotir. Prezidentimiz tomonidan joriy yilning 20 sentyabrida imzolangan "Mamlakatimizning dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu yo'ldagi navbatdagi muhim qadam bo'ldi.

Ma'lumki, dasturiy ta'minot yaratuvchilarining asosiy daromadi xodimlarga ish haqi to'lash, zarur moddiy-texnik bazani muntazam mustahkamlab borishga sarflanadi. Shu ma'noda, qarorga binoan Milliy reyestrda kiritilgan dasturiy ta'minot vositalarini ishlab chiquvchilar 2017 yilning 1 yanvariga qadar muddatda barcha turdagi soliqlar hamda majburiy ajratmalar to'lashdan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha o'z ehtiyojlari uchun olib kelinadigan uskunalar, butlovchi qismlar, detallar, uzellar, texnologiya hujjatlari, dasturiy ta'minot vositalariga boj to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) to'lashdan ozod qilingani, ayniqsa, e'tiborlidir. Mazkur mablag'lar dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarining xodimlarini

rag'batlantirish, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga yo'naltiriladi.

Hozirda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari dasturiy mahsulotlarning faol iste'molchisi hisoblanadi. Keyingi vaqtda mamlakatimizda vazirlik va idoralar, xo'jalik birlashmalari, yirik korxonalarining xarajat smetasi va biznes rejalarida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, axborot tizimlari va resurslarini yaratish, dasturiy mahsulotlar hamda interfaol davlat xizmatlarini joriy etishga qaratilgan xarajatlarni nazarda tutish yuzasidan tegishli ishlar olib borilmoqda. Joriy yildan e'tiboran davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining idoralararo integratsiyalashgan axborot tizimlarini joriy etish, idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmoqlarini yaratish, "Elektron hukumat" tizimini hamda internet tarmog'ining milliy segmentini shakllantirish bo'yicha loyihalarni ro'yobga chiqarish uchun davlat buyurtmasini shakllantirish va moliyalashtirish borasidagi ishlar boshlab yuborilgan.

Mazkur hujjat dasturiy ta'minot sanoatini rivojlantirish, davlat organlarida ixtisoslashtirilgan dasturiy mahsulotlardan foydalanishni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, "Elektron hukumat" loyihasini amalga oshirishda mahalliy kompaniyalarning faol ishtirokini rag'batlantiradi.

Qarorga muvofiq, www.software.uz veb-sayti internet-portalida joylashtirilgan dasturiy mahsulotlar va ishlab chiquvchilarning milliy katalogi negizida shakllantiriladigan Dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarining Milliy reyestri mamlakatimizning dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilari to'g'risidagi axborotning yagona elektron bankini tashkil etish va istiqbolli loyihalar hamda innovatsion kompyuter texnologiyalarini yaratish bilan mashg'ul iste'dodli yosh dasturchilarni qo'llab-quvvatlash, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish bozorining holati va salohiyati to'g'risida axborot berish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh milliy dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishni rag'batlantirish, bu sohada istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Milliy reyestr elektron shaklda on-layn rejimida yuritiladi. O'z dasturiy ta'minot vositalarini ishlab chiqish, tatbiq etish va sotishdan olingan daromadlari

ular sotgan tovarlar, ishlar, xizmatlar umumiy hajmining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar Milliy reyestrda ixtiyoriy va bepul asosda kiritiladi. Shuningdek, Milliy reyestrda kiritilgan yuridik shaxslar — dasturiy ta'minot vositalarini ishlab chiquvchilar uchun ushbu qarorda nazarda tutilgan soliq imtiyozlarining amal qilish muddati, agar ularning o'zlari ishlab chiqargan dasturiy ta'minot vositalarini eksport qilish hajmi ular sotgan tovarlar, ishlar, xizmatlar umumiy hajmining kamida 50 foizini tashkil etgan taqdirda, 2 yilga uzaytiriladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi "Yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining amal qilishi Milliy reyestrda kiritilgan yuridik shaxslar — dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilariga, agar ular xonadonlarda ishlovchi (kasanachi) jismoniy shaxslar bilan mehnat shartnomalari tuzadigan bo'lsa, tatbiq etishlari ham qarorda ko'rsatilgan.

Yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliq va yagona soliq to'lovi bo'yicha yangi texnologiya uskunalari xarid qilish chog'ida soliqqa tortiladigan bazani kamaytirishga doir amaldagi tartib respublika korxonalarini va tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining har yilgi Investitsiya dasturiga kiritiladigan axborot tizimlarini yaratish bo'yicha investitsiya loyihalari doirasida mamlakatimizda ishlab chiqarilgan dasturiy ta'minot vositalarini sotib olishga yo'naltiriladigan mablag'lar miqdoriga joriy qilinadi.

Endi dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilari dasturiy ta'minot vositalarini ishlab chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ishlar hamda xizmatlarni internet tarmog'ining on-layn do'konlari orqali eksport shartnomasi mavjud bo'lmasdan xorijiy valyutaga eksport qilish huquqiga ega bo'ldilar.

Ayni kunda Apple Store, Google Play va boshqa bir qator on-layn tizimda faoliyat ko'rsatuvchi do'konlar o'z standartlariga muvofiq keluvchi dasturiy ta'minotlar uchun o'z platformalaridan joy ajratishadi va dasturchilarga o'z mahsulotlarini mazkur do'konlarning kataloglari orqali sotish huquqini berishadi.

Mazkur katalogdagi dasturiy ta'minotlarni Yer yuzining xohlagan nuqtasidagi mijozlar on-layn to'lovlar orqali sotib olishlari mumkin. Xullas, Prezidentimiz qaroriga muvofiq tashkil etiladigan Milliy reyestr yurtimiz dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilariga bevosita internet orqali mahsulotlarini sotish, xalqaro shartnomalar tuzish imkoniyatini ham beradi.

Bitiruv malakaviy ishimizning maqsad va vazifalari. Davolanish muassasalarida bemorlarni navbat bilan qabul qilish, tekshiruv natijalari, kasallik belgilari, qo'yilgan diagnoz, qilingan muolajalar haqidagi ma'lumotlarni saqlash va elektron kartani shakllantirish uchun dasturiy mahsulot loyihasini ishlab chiqish. Yozilgan loyiha asosida davolanish maskanlari uchun dasturiy tizim ishlab chiqish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishimizning o'rganilganlik darajasi. Bitiruv malakaviy ishni yozish jarayonida dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish uchun loyihaning ahamiyati va loyiha yoshish texnologiyasi o'rganildi. Muassalardagi ish faoliyat o'rganilib avtomatlashgan tizim uchun jaroyonlar aniqlanib olindi.

Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti. Avtomatlashtirilgan tizimlar hozirgi kunda alohida mavqega ega sanaladi. Avtomatlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqish uchun loyihalarni yozishga qoyilgan talablar bitiruv malakaviy ishimizning predmeti sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishimizning tadqiqot ob'ekti. Davolanish maskanlari uchun dasturiy mahsulotlarni yaratish loyihasi. Ushbu loyiha orqali davolanish maskanlari uchun dasturiy mahsulot ishlab chiqiladi. Yaratilgan dasturiy mahsulot yordamida davolanish maskani ishini monitoring qilish imkoni yaratiladi.

Ushbu loyihani yaratilishi asosiy sabablari dasturiy mahsulotni tez tayyorlash uni hizmat muddatini uzaytirish, dasturchilarga jaryonni avtomatlashtishga qulaylik yaratishga olib keladi.

Davolanish maskanlari tizimni yartish uchun yoziladigan loyiha va undagi muammolarni qisman hal etish bitiruv malakaviy ishimizning ob'ekti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy ahamiyati. Ilmiy ahamiyati shundaki, daturiy mahsulotlarni yaratish uchun loyihalar ishlab chiqishni o'rganish va

o'rganilgan bilimlarni davolanish muassasalarida dasturiy mahsulot yaratish loyihasini yozishda tadbiq qilish

Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy ahamiyati. Yaratilgan loyiha asosida dasturiy mahsulot ishlab chiqish imkoni beradi.

Bitiruv malakaviy ishimizning tadqiqot usuli. Tadqiqot bajarilishi uchun dasturiy mahsulotlar uchun loihalarni yartish o'rganildi, davolanish muassalaridagi ish jarayonlar o'rganildi, jaroyonda ishtirok etadigan obyektlari va jaroyonlar ketmaketligi aniqlanib olindi. Davolanish muassasalarida bo'ladigan jaroyonlar loyihaning asosi qilib olindi.

Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy jihatdan yangiligi. Dasturiy mahsulotlar uchun loyiha organilib davolanish muassasalari uchun dasturiy mahsulot ishlab chiqish loyihasi yozildi.

Bitiruv malakaviy ishimizning tarkibi va hajmi. Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz 76 betdan iborat bo'lib, kirish, 2 ta bob, xotima, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida hozirgi sharoitda avtomatlashtirilgan ish o'rinlarining ahamiyati, bunda ayniqsa dasturiy vositalarning zarurligi, dasturiy vositalardan foydalanish zamon talabi ekanligi ularni yaratish va loyixalash ularga qo'yiladigan talablar haqida so'z boradi, shuningdek mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ob'ekti, bajarilgan ishlar, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati kabilar bayon etilgan.

I.BOB. DASTURIY TAMINOTNI LOYIHALASH

1.1. Dasturiy taminot loyihash bosqichlari va natijalari

Apparat vositalari sohasida ma'lumotlarga ishlov berish va ularni qayta ishlash so'nggi yillarda konstruktsiyada va texnologiyada jiddiy muvaffaqiyat qozondi. Har ikki-besh yilda yangilanadigan kompyuterlarning yanada samaraliroq avlodlari buning natijasidir. Dasturiy ta'minot sohasi o'tmishda mahsulotning hayotiy sikli bilan 10 yil atrofida ishlardi. Amaliy dasturiy ta'minot sohasidagi mahsulotning ancha uzoq hayotiy sikli shunga asoslanadiki, professional talablar apparat vositalarining texnik imkoniyatlari singari tez o'zgarmaydi.

Apparat vositalarining o'zgarishi, shuningdek yangi kompilyatorlar (Compiler) va operatsion tizimlar paydo bo'lishi sababli dasturiy ta'minot xizmat muddati davomida o'zgartirishlarning katta miqdori zarur bo'lib qoladi. Ma'lum darajada ular "yuqoridan pastga" qoidasi ishlamaydi, chunki yangi muhit eski dasturlarga xizmat ko'rsata olmaydi va eski turdagi kompilyatorlar komandasini uzoqroq tutib turmaydi. Bundan tashqari mazkur yangi vositalar eski dasturlashni osonlashtiradigan yangi vositalarning katta miqdoriga ega.

Keyingi sabab shuki, kompilyatorlarning dolzarb versiyasi apparat vositalari yangi platformasidagi ortiq ishlashga qodir emas (ya'ni funktsional bo'lmay qoladi) va ularni tegishlisi bilan almashtirishga tayyorgarlik ko'rish lozim. Bu asosda o'zgarishlarning natijasi shuki, ko'p hollarda iloji boricha ko'proq dasturlarni tez o'zgartira olish uchun ularni notartib deb atalgan o'zgartirishlar natijasidir. Etarli darajada hujjatlashtirishni o'zgartirishni amalga oshirmaslik dasturlarni tushunib bo'lmaydigan qiladi.

Bundan tashqari, ko'pincha shunday ham bo'ladiki, xodim (mutaxassis) tashkilotni tark etadi, dasturlarda xatolar bo'lib, hujjatlar to'liq bo'lmasa va shunday qilib bu dasturdagi Nou-Hau yo'qotiladi. Shuning uchun ayrim tashkilotlar "So'nggi chora"ni yangi tizimni qo'lga kiritishda ko'radi.

Shu bilan birga tan olishmaydiki yangi standart dasturiy ta'minotni rejalashtirish va kiritishning o'zi ko'pincha juda uzoq davom etadi va o'z kuchlari

bilan ishlab chiqilgan va yana kutish kerak bo'ladigan bir qator to'ldirishlar bilan tugaydi.

Mana shu sabablarga ko'ra sanoati industrallashgan mamlakatlarda eski odatlarni yengib o'tish yoki texnik xizmat ko'rsatish tarmog'i bo'yicha dasturiy ta'minot sohasida mashg'ul bo'lgan barcha xodimlarning 50 dan 80 foizigina mehnat qiladi. Qolgan 20-50 foiz xodim tizimli va amaliy dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va uni kelgusida rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

O'zbekistonda sobiq sovet davridan qolgan zamonaviy dasturiy ta'minot bilan baravar qo'llaniladigan va albatta, dasturiy ta'minot bilan soddalashtirilmagan bir qator o'ziga xos dasturiy ta'minot mavjudki, mamlakatda umuman olganda bu o'ziga xos xususiyat bilan qiyoslasa bo'ladigan vaziyat hukmronligini ifoda etadi. Bu erda dasturchilar uchun dasturiy ta'minot xizmatini ko'rsatish, uni bundan keyin rivojlantirish (takomillashtirish) bo'yicha, zarurat tug'ilganda esa mamlakatning iqtisodiy va ma'muriy jarayonlari uchun zarur bo'lgan yangi dasturiy ta'minotni ishlab chiqish bo'yicha faoliyatning keng maydoni mavjud.

Bu jihatdan mazkur o'quv qo'llanmaning "Xizmat ko'rsatish va bundan keyingi rivojlantirish" masalalari bo'yicha qo'llanmaning alohida bobida ma'lumot beriladi. Keyingi mulohozalar eng avvalo, dasturiy ta'minotning turlari va ularning vazifalari haqidagi tasavvurlar dasturlar yoki butun bir amaliy tizimlarni loyihalash, amalga oshirish va xizmat ko'rsatishdagi harakat usullari va chizmalari bilan birga beriladi.

Faza chizmasi va modul texnikasi

Dasturiy ta'minot ishlab chiqish jarayonini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilishning keng tarqalgan usuli – bu dasturiy ta'minot ishlab chiqishda ishtirok etgan barcha shaxslarning qat'iy sura'tda faza chizmasining qo'llanilishidir. Bu bobda 3 ta keng tarqalgan faza chizmalari tavsiflab beriladi:

- Forward Engineering (Pog'onali model)
- Spiral model
- V model

Barcha 3 ta sxema (faza) uchun umumiy bo‘lgan amalga oshirish fazasida modulli texnikasi qo‘llaniladi, shu bilan birga Top down loyiha va Bottom up loyihalashlardan yondashuvning ikkita usuli ajralib turadi.

Dasturiy ta‘minot ishlab chiqishni davriy bo‘laklarga (= Phasen) bo‘lish haqidagi asosiy g‘oya uyg‘un umumiy jarayonini ishlab chiqishni pog‘onama-pog‘ona bosqichiga bo‘lish istagidir. Bu bilan dasturiy ta‘minotni tayyorlash loyihasi ancha aniq bo‘ladi, hatto bunda ishlab chiqishning tegishli darajasi esa bevosita ishtirok etmaganlar uchun ham ochiqoydin namoyon bo‘ladi.

Bu bobdan keyingi bobda hujjatlashtirishni olib borishni turli texnikalariga ko‘rsatmalar beriladi.

Ixtisoslashtirilgan rejada (ko‘pincha hisob-kitob rejasi deb ataluvchi) ishlab chiqish zarur bo‘lgan dasturiy ta‘minot bo‘yicha ma‘lumotlar bayon qilinadi. Bu esa, jumladan quyidagi tarkibiy qismlarning ko‘rib chiqilishini va quyidagi savollarga javoblarni bildiradi:

Maxsus rejaning tarkibiy qismi	Savolning qo‘yilishi
Tizimli maqsadlar	Rejalashtirilgan tizim qanday muhim vazifalarni bajarishi kerak?
Foydalanuvchilar modeli	Ishlab chiqarish iqtisodiy yoki texnik vazifalarga nisbatan bo‘lg‘usi foydalanuvchilar uchun ular bajarishi lozim bo‘lgan qanday talablar yuzaga keladi? Qanday zaruriy maxsus bilimlar va informatikaga oid bilimlari foydalanuvchilarda dasturiy ta‘minot bilan muomalada bo‘lish uchun dastlabki shartdir? Dasturiy tizimdan ish jarayonida qanchalik tez-tez foydalaniladi.
Baza mashinasi	Ishlab chiqiladigan dasturiy ta‘minot uchun apparat vositalari platformasiga

	<p>nisbatan (bunga kiritish va chiqarish maxsus qurilmasi ham kiradi) qanday eng kichik talablar yuzaga keladi? Qanday tizimli dasturiy ta'minot (operatsiya tizimi) uchun qo'llash rejalashtiriladi?</p>
Foydalanuvchi interfeysi	<p>Alohida foydalanuvchilar uchun masalan, kutishga ruxsat, printer muhiti va dasturiy muhitga nisbatan qanday ixtisoslarni oldindan ko'zda tutish kerak? Dasturiy ta'minot tizimi foydalanuvchi xatosini (mas. ma'lumotlarni nojoiz kiritish) va dasturning o'zini noto'g'ri tutishini qanday qabul qiladi va xato haqida foydalanuvchiga qanday xabar beradi? Foydalanuvchi bilan dialog qanday shaklda o'tkaziladi? Konsolli interfeyslar haqida gap ketayaptimi yoki grafik interfeyslarga intilishmoqdami?</p>

1.1.1-jadval: Ixtisoslashtirilgan rejaning tarkibiy qismlari


Ixtisoslashtirilgan reja doirasida 1.1.1-jadvalga muvofiq ma'lumotlarga ishlov beruvchi qurilmalar tavsifi va ishlab chiqilayotgan dasturiy ta'minot uchun aytib o'tilgan vazifa qo'yilishga javoblarni o'z ichiga oladi. Hozircha amalga oshirishning alohida dasturiy texnik jihatlari haqida mulohaza bildirishdan tiyilish kerak. Huddi shu tufayli ishlab chiqilayotgan dasturiy ta'minot tizimini dasturiy-spetsifikatsiyalini amalga oshirish tafsilotlariga berilmasdan, dasturiy ta'minotga talablarni o'rganish bosh vazifadir. Bu tartib, boshqalar qatorida, dasturiy ta'minotni turli-tuman operatsion tizimlariga keyinchalik ko'chirishga imkon

beradi (ta'minot dasturining harakatchanligi). Tadqiqot natijalari va haqiqiy ahvol va ixtisoslashtirilgan reja tahlili, masalalar qo'yilishiga javoblar umumlashtirilgan holda texnik topshiriqda to'planadi. Agar dasturiy ta'minotni ishlab chiqish AKT firmasiga topshirilsa, unda ushbu texnik topshiriq pudratning tuziladigan shartnomasi yoki mehnat shartnomasi uchun asosdir. Bu shartnomada dasturiy ta'minotni ishlab chiqish bo'yicha firma tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan va pudratchi hamda buyurtmachi uchun majburiy bo'lgan talablar qat'iy belgilanadi. Texnik topshiriq yuqorida ko'rsatilgan faza bo'yicha natija sifatida maxsus aniq (oxirgi) rejaga ega. Muayyan realizatsiya (dasturlash) shubhasiz avvaliga faqat xomaki holda tavsiflanganligi sababli, mazkur realizatsiya va tadbiriq qilish nuqtai nazaridan texnik topshiriq faqat dasturiy-texnik, shakilda xomaki rejaga ega bo'ladi.

“**Dizayn**” fazasida (shuningdek dasturiy loyiha deb ham ataladi) texnik topshiriqdagi dasturiy-texnik taxminiy reja bundan keyin aniq (oxirgi) rejaga qayta ishlanishi kerak. Ushbu aniq reja keyinroq amalga oshirilishi kerak bo'lgan dasturlar yoki dasturiy ta'minot tizimi uchun asosni platformani yaratadi. Dizayn – bu dasturiy-texnik aniq reja va bundan keyingi dasturlash uchun asosdir. Modul yaratish dasturlashni osonlashtiradi. Dizayn yoki Top down ishlab chiqish yo'nalishida yoki Bottom up yo'nalishida ifodalanadi. Endi eng kichik talablardan foydalanuvchi interfeysidan kelib chiqib tayanch modelining tarkibiy qismlarini (1.1.1-jadvalga qarang) batafsil tasniflash zarur. Bu bilan mufassal ishlangan kompyuter tizimi dasturiga havola qilingan va bu masalani echish uchun zarur dasturni rejalashtirilishi mumkin.

Dasturni bevosita rejalashtirish va bundan keyingi dasturlash uchun asos bo'ladigan dasturiy-texnik aniq rejani tuzish modullashtirishni amalga oshirilgandan so'ng yaratiladigan dasturning ierarxik tuzilishi loyihasi orqali sodir bo'ladi. Modullashtirish masalasining keng miqyosli qo'yilishini yaxshi ochiq ko'rinishda ko'rsatilishini va keyingi dasturiy kodlarning (Quellcode) kichkina yaxshi ko'zga ko'rinadigan birliklarga bo'linishini bildiradi. Ushbu bo'lingan masalalar modullar va ularning dasturlaridir. Modullarning loyihalashida ular

mantiqiy tugallanganligi va bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda amalga oshishi mumkinligiga diqqatni qaratish kerak. Shu sababli modullar o‘rtasida tushunarli tashqi aloqalarni belgilash zarur-ki, ular orqali keyinroq alohida komponentalar (qismlar) yagona mahsulotga birlashadi. Bu usullarning afzalligi shundan iborat-ki, butun dasturni tayyorlashni bir necha dasturchiga taqsimlab berish mumkin, shu bilan birga ular ish usullari yoki ularning modellarini amalga oshirish bilimlari bilan cheklanishlari mumkin. Qolgan hollarda modullar o‘rtasidagi aloqa belgilanuvchi interfeyslar orqali amalga oshiriladi. Bu eslatib o‘tilgan butun tizimni testdan o‘tkazishning ko‘zga ko‘rinadigan va soddalashgan imkoniyati uchun zamin yaratadi-ki, unda tarkibiy unsurlarining ish tamoyillari tegishlicha bittadan testlash uchun jalb qilinadi. Zarurat tug‘ilganda dasturiy ta’minot butun tizimining yangi taxminiy xom qolipini tuzishga ehtiyoj sezmasdan, bunday



modullarni shuningdek osongina almashtirish, o‘zgartirish yoki to‘ldirish mumkin. Dasturning taqdim qilingan ierarxik tuzulmasini amalga oshirish uchun asosan ikkita har xil yondashuv mavjud: · Top down ishlab chiqish yo‘nalishi · Bottom up tayyorlash yo‘nalishi · Bu yondoshuvlar u quyida batafsilroq tushuntirilib beriladi.

1.1.1-rasm: Oraliq va foydalanuvchi interfeysi va tayanch mashinasi o‘rtasidagi ishlab chiqish yo‘nalishi.

Tizimni modernizatsiya qilish bo'yicha texnik loyihada quyidagilar bo'lishi kerak:

1. Funktsional xususiyatlarga bo'lgan talablar.
2. Foydalanuvchi interfeysi talablari:
 1. Modulning tarkibi;
 2. Funktsional modullarni tavsifi;
3. Ma'lumotlar tuzilmasiga qo'yiladigan talablar:
 1. Ma'lumotlar bazasi tuzilishi;
 2. Ma'lumotlarni saqlash formatlarining tavsifi;
4. Ma'lumotlarni ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish talablari.
5. Uskuna kompozitsiyasi va parametrlarga bo'lgan talablar
 1. Ish stantsiyasiga qo'yiladigan talablar;
 2. Ilova serveriga qo'yiladigan talablar;
6. Vaqt va hisobot hujjatlarini ko'rsatgan holda tizimni loyihalash, ishlab chiqish va joriy qilish bosqichlari.
7. Hujjatlarga qo'yiladigan talablar:
 1. Tizimning tavsifi;
 2. Foydalanuvchi rollarini tavsifi;
 3. Biznes-jarayonlar tavsifi (sxemalar, foydalanuvchi tomonidan bajariladigan rollar);
 4. Ma'lumotlar bazasi tarkibi;
 5. Foydalanuvchida tizimda saqlanadigan ma'lumotlarga kirish huquqini tuzish;
 6. Administrator ko'rsatmasi;
 7. Foydalanuvchilar uchun qo'llanma;

2.3. Batafsil ish rejasi (bosqichlar ro'yxati, ular uchun belgilangan muddatlar)

- I. Avtomatlashtirish tizimining funktsional modullari
 1. Poliklinika
 - 1.1. Ro'yxatga olish

Ushbu modul bemorlarni ro'yxatga olish, ambulatoriya kartasini yaratish va chop etish, mutaxassislarni rejalashtirish, bemorlarni qabul qilish, kuponlarni chop etish uchun mo'ljallangan.

Modulning asosiy funksiyalari:

- * Bemorlarni elektron ro'yxatga olish
- * Elektron ambulatoriya kartalarini yaratish
- * Bemorlarning ambulatoriya kartalari uchun o'zgacha barkodli sahifalar chop etish
- * Bemorning turli ma'lumotli va shtixkodli kartasini shtix-kod skaneri orqali tezda qidirish
- * Ma'lumotlar bo'yicha ko'p darajali guruhlarini yaratish.
- * Keng filtrlash imkoniyati.
- * Bemor suratini joylashtirish imkoniyati(Web-kamera yoki fayldan)
- * Ma'lumotlarni eng mashhur formatlarga (Word, Excel, Open Office, PDF, BMP, JPEG, GIF, TIFF, txt fayl, CSV fayli) yuklash.
- * Xizmat ko'rsatilayotgan fuqarolarni ro'yxatga olish ishini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlab blankalarni chop etish.
- * Bemorlarni shifokor bilan uchrashuvga jalb qilish, shu jumladan, moslashuvchan dasturlarni yaratish, tibbiy lavozim vazifasini ko'rib chiqish, kuponlarni chop etish.
- * Uyga chaqirilgan doktorlarni hisobini yuritish, chaqiruv manzil bo'yicha kartalarni chop etish. Chaqiruvlar jurnali va ish o'lchami hisobga olish
- * Bo'sh vaqtlar uchun ishni rejalashtirish
- * Bemorlarni Internet orqali shifokorga yozib olish imkoniyati, shu jumladan, mutaxassisga bo'sh vaqtni ko'rish imkoniyati
- * Uchrashuvni boshqa muddatga o'tkazish (boshqa mutaxassisga)
- * Bemorni avtomatik ogohlantirishlar (eslatmalar) elektron pochta va SMS orqali kelishi kerakligi haqida
- * Turli ma'lumotlarning nashr qiladigan, yangiliklar va xabarlar ustunini saqlaydigan saytni boshqarish

* Amblyatorya kartalarni statsional bo'limlarga berish arizalarni qayta ishlash va yetkazilgan kartalar ro'yxatini chop etish.

* Ambulatoriya kartasining qog'oz nusxasini joylashishini kuzatish va uning harakatlari tarixini ko'rish imkoniyati

1.2. Poliklinika shifokori

Kasallik tarixini elektron yozishni avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan. Modul dispanser kuzatuviga qo'yilgan bemorlarning yozuvlarini saqlab turishi kerak. Jarrohlik moduli GOST R 52636-2006 "Elektron protsessual tarixi. Umumiy qoidalar" ga muvofiq ishlab chiqilishi kerak (ROSTECHREGULATION tomonidan 2006 yil 27 dekabrda 407-son buyrug'i bilan tasdiqlangan).

Modulning asosiy funktsiyalari:

* Belgilangan kunda, belgilangan shifokor ko'rigiga navbatsiz kiradigan bemorlardansiz tuzilgan ro'yxatni ko'ra olish.

* Karta arxivida bemorni izlash

* Ambulatoriya kartani tahrirlash

* So'nggi tashriflarni ko'rish

* Keyingi dispanser kuzatuv vaqtini avtomatik hisoblash

* Dispanser kuzatuv ostiga olingan bemorlar ro'yxatini chop etish

* Bemorning elektron tibbiy qaydnomasini yuritish

* Qisqa tarixni kiritish

* Mutaxassis ko'rik ma'lumotlarini maxsus shablonlarga joylashtirish

* Tashxis ma'lumotlarini va to'liq ish ma'lumotlarini kiritish

* Kasbiy ko'rik natijalarini ro'yxatga olish(kasbiy ko'rikdan o'tgan shifokorlar uchun)

* Qo'llanilishi kerak bo'lmagan davolash yo'llari va profilaktikalarning ro'yxatini o'zgartirish

*Murakkab dorilar ro'yxatini o'zgartirish

* Laboratoriya va instrumental tadqiqotlar tayinlash

* Vaqtinchalik nogironlik varaqalarini chop etish va berilgan LVN ro'yxatini saqlab qolish

* Dorilarni tavsiya qilish va retseplar yozib berish

* Uyga borilishi kerak bo'lgan(uyda davoydigan shifokorlat uchuch).

* Shiftga poliklinika kuponlarini kiritish

1.3. Tish shifokori

Bemorlarga stomatologik xizmatlarni avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan.

Modul stomatologi GOST R 52636-2006 "Elektron guvohnoma tarixi" umumiy qoidalariga muvofiq ishlab chiqilishi kerak (ROSTECHREGULATION tomonidan 2006 yil 27 dekabrda 407-son buyrug'i bilan tasdiqlangan).

Modulning asosiy funksiyalari:

* Hozirgi kunda muayyan shifokorga qabul qilish uchun bemorlarning ro'yxatini ko'rish, navbatda turgan bemorlarni tanlash

* Karta arxivida bemorni izlash

* Ambulatoriya kartani tahrirlash

* So'nggi tashriflarni ko'rish

* Bemorning elektron tibbiy qaydnomasini yuritish

* Bemorni dastlabki tekshiruv ma'lumotlarini kiritish

* Tish ta'rifini to'ldirish

* Og'iz bo'shlig'i ma'lumotlarini kiritish

* Shifokorning kundalik yuritishi

* Davolash rejasini tuzish va bajarilgan xizmatlarni aniqlash

* Davolangan bemorlar ro'yxatga olish kitobi tutilishi

1.4. Klinika direktori

Modulning asosiy funksiyalari:

• Bo'sh vaqtlar uchun ishni rejalashtirish

• Ambulatoriya talonlarini muhrlash

• Ro'yxatga olish ishi bo'yicha zarur statistik hisobotlarni shakllantirish

2. Kasalxona

2.1. Kutish xonasi

Ushbu modul tibbiyot muassasasiga kirish (qabul qilish) vaqtida yangi bemorlarni ro'yxatga olish uchun ishlatiladi. Bemorni qabul qilish jarayonini avtomatlashtiradi, bemorlarni tibbiy muassasada tartibli harakatlantiradi.

Modulning asosiy funktsiyalari:

- * Bemorni ro'yxatdan o'tkazish

Bemorning tibbiy kartasining old tomonini shakllantirish (№ 003-shakl);

- * Kasallikning tarixiga biriktirilgan linerni shakllantirish

- * Tibbiy aralashuv uchun rozilik shakllarini shakllantirish, shuningdek tibbiy aralashuvdan bosh tortish

- * Kasalxonadan nafaqaxo'rlarning statistik xaritasini shakllantirish (066-sonli shakl)

- * Kasalxonaga yotqizilgan bemorlarning ro'yxatini saqlash

- * Kasalxonada bemorlarning harakatlari haqida ma'lumot kiritish

- * Bemorlar va shifoxona yotoqlari fondi yozuvlarini saqlash

Klinikada bemorlarning ambulatoriya kartalari uchun arizalarni shakllantirish

- * Yo'l-transport hodisalari va sanoatdagi baxtsiz hodisalar yuz berganda, shuningdek ko'cha bolalarini qabul qilish hollari haqida xabarnoma tuzish

- * Yuqumli kasalliklar to'g'risidagi xabarnomalarni shakllantirish, zaharlanish, emlash uchun odatiy reaksiyalar

2.2. Statsionar bo'limi

Ushbu modul shifoxonalarda shifokorlar va hamshiralar ishini avtomatlashtirish, tibbiy hujjatlarning sifati va ko'rinishini yaxshilash uchun mo'ljallangan.

Modulning asosiy funktsiyalari:

- * Bemorni dastlabki tekshiruv ma'lumotlarini kiritish

- * Jurnal yozuvlari

- * Tibbiy tayinlash jurnallarini saqlash.

- * Protokollarni shakllantirish tibbiy manipulyatsiyani amalga oshirdi.

Operatsiyalar protokollarini shakllantirish.

- * Bajarish bayonnomasini topshirish.

* Bemorlarning qon tarkibiy qismlarini transfüzyonuna guvohlik va rozilikni shakllantirish.

* Komponentlar va qon mahsulotlarini olish uchun talablarni shakllantirish.

Bemorni jarrohlik operatsiyasini amalga oshirish uchun ma'qul kelishini shakllantirish.

* Malign neoplazmaning birinchi tashxisi qo'yilgan xabarnomalarning shakllanishi.

Tadqiqot yo'nalishlarini shakllantirish

* Jarrohlik aralashuvini shakllantirish jadvali.

* Bo'limda bemorlarning harakatini qayd etish

* Tegishli bo'linmalardagi ma'lumotlarni kiritish va kiritilgandan so'ng laboratoriya ma'lumotlari, diagnostika ishlarini ko'rish

* Boshqa bo'limlar mutaxassislarini maslahatlash uchun arizalarni shakllantirish va arizalarni ko'rib chiqish

* Kafedrada xodimlarning ish rejalarini shakllantirish

* Bo'limda giyohvand moddalarning harakatlanishini nazorat qilish

* Bo'limda moddiy boyliklarni hisobga olish

* Dori-darmonlarga bo'lgan arizalarni shakllantirish, parish haqida ma'lumot kiritish va talablarga javob berish

* Ushbu vosita sarflangan bemorlarning ismlarini ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan rejalashtirilgan va bajarilgan dorilar uchun hisob.

Postlar bo'yicha dori-darmonlarni hisobga olish.

3. Perinatal markaz

3.1. Kutish xonasi

Ushbu modul perinatal markazning ginekologik va akusherlik bo'limlarining favqulodda xizmatlarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan.

Modulning asosiy funksiyalari:

* Bemorni ro'yxatdan o'tkazish

* Bemorning elektron tibbiy yozuvini yarating

* Tibbiy tarix yaratish va shaklni chop etish (003 / u shakli, SSSR Sog'liqni saqlash vazirligining 04.10.1980 yildagi 1030-son buyrug'i)

- * Abortning tibbiy kartasini yaratish va blankani chop etish (003-1 / u shakli, SSSR Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'i №1030, 10.04.1980 y.)
 - * Tug'ilish tarixi va shaklini nashr etish (096-1 / u shakli, SSSR Sog'liqni saqlash vazirligining 10.04.1980 yildagi 1030-son buyrug'i)
